

**O‘ZBEK ADABIYOTIDA AN’ANAVIYLIK***Xolmatov Doston Abdujabbor o‘g‘li**Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti**[dostonbekkhalmatov@gmail.com](mailto:dostonbekkhalmatov@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asr o‘zbek adabiyotida an’anaviylik va uning o‘ziga xosligi turli misollar yordamida keltirib o‘tildi.

**Kalit so‘zlar:** an’anaviylik, badiiy detal, novator, hikoya, mumtoz, ijodkor.

**Аннотация.** В данной статье традиционализм и его уникальность в узбекской литературе XX века были представлены на различных примерах.

**Ключевые слова:** традиционализм, художественная деталь, новатор, рассказ, классик, творец.

**Annotation.** In this article, traditionalism and its uniqueness in Uzbek literature of the 20th century were presented using various examples.

**Key words:** traditionalism, artistic detail, innovator, story, classic, creator.

Bizga ma’lumki, barcha sohada rivojlanish taraqqiyoti bo‘lgani kabi badiiy adabiyotda ham bu jarayon tinimsiz davom etmoqda. Badiiy asarlarni yaratilishida an’anaviylik va o‘ziga xoslik yetakchilik qiladi. Chunki yozuvchi xohlaydimi, yo‘qmi, albatta, o‘tmish yozuvchilarining sinalgan tajribalariga tayanadi. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tishimiz mumkin: “Adabiy an’ana – dunyoni badiiy idrok etish, bilish sohasida davrdan davrga, avloddan avlodga o‘tib kelgan adabiy tajribalar: estetik qarashlar, tasviriy vositalar, tildagi obrazlilik, emotsionallik va uslubdagi rang-baranglik. O‘tmish yozuvchilarining ijod tajribasida sinalgan, ustuvor va muqim g‘oyaviy-badiiy boylklarni yosh bo‘g‘in o‘z davri talabiga ko‘ra qayta ishlab, ijodiy rivojlantiradi.”<sup>1</sup>

O‘zbek adabiyoti doim eskirmagan, zamon talablariga javob beruvchi, yuksak an’analarga suyanib kelgan. Bunday ilg‘or an’ana ijodkorni novatorlikka undaydi.

<sup>1</sup> [O‘zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

Shu o'rinda "Novator – (lotincha yangilovchi, yangilik kashf etuvchi) kishilik faoliyatining biror sohasida yangicha ilg'or prinsip, g'oya, usul kirituvchi va uni amalga oshiruvchi"<sup>2</sup> degan ma'nolarni anglatishini eslatib o'tmoqchiman. Shu nuqtayi nazardan "an'ana va novatorlik orasida mantiqiy aloqa bor. Ularni bir-biridan ajratib, ham tasavvur qilib bo'lmaydi."<sup>3</sup> Biz uchun an'ana bo'lgan ko'plab g'oya va mayllar o'z vaqtida yangilik hisoblangan. Masalan, bizda "Xamsa"chilik, "Tazkira"chilik kabi an'analar mavjud edi. "Xamsa"chilik Nizomiy Ganjaviy uchun yangilik bo'lsa, Alisher Navoiy uchun esa an'ana bo'lgan. To'g'ri, Navoiy "Xamsa"chilikka yangiliklar olib kirib mukammal darajaga olib chiqqan.

O'zbek adabiyotida XX asrga kelib roman janrida ijod qilib, uning rivojiga o'z hissasini qo'shgan Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O'tkir Hoshimov, Omon Muxtorov va boshqa ijodkorlar jahon adabiyotidagi ilg'or an'analarga suyanganlar. Badiiy adabiyotda an'ana quyidagicha bo'ladi:

G'oyaviy an'ana. Bu asarlardagi insonparvarlik, qahramonlik, vatanparvarlik g'oyalarining rivojlanishidir.

Tiplar an'anasi. Obraz yaratish prinsiplarining keyingilari tomonidan qabul qilinib rivojlantirishidir.

Badiiy an'nalar sohasidagi an'analar. Shunisi muhimki, g'oyaviy an'analar hamda tiplar an'anasi dunyoqarashi bir-biriga yaqin yozuvchilar tomonidan rivojlantiriladi.

O'zbek adabiyotida chuqur iz qoldirgan ijodkor Abduhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ham o'zining asarlarida o'zbek mumtoz adabiyoti hamda she'riyati an'analarni davom ettirib keldi. U o'zining "Adabiyot nadur" maqolasida "Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o'qiyman: bir xil, bir xil, bir xil!" Ko'ngil boshqa narsa – yangilik qidiradir: Botu,

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Beshinchi jild. "O'zbekiston nashriyoti". T. 2020-yil

<sup>3</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

G‘ayratiy, Oltoy, Oybek, Julqunboylarni o‘qiymen, quvontiradi, xolos! Ular mening uchun yong‘on chiroqlar bo‘lsa, mening ertam uchun! Avloniy, Tavallo, Siddiqiylarni o‘qimaymen, o‘qimaymen, meni shu holg‘a solg‘on o‘shalar...”<sup>4</sup> degan fikrlarni keltirib o‘tadi. Bundan shu narsa seziladiki, Cho‘lponning bu ramziy xitobi – an‘anaviylikka munosabati adabiyotshunoslar tomonidan turlicha talqin qilinib kelinyapti. Cho‘lpon o‘z she‘rlarida mumtoz poetikamizning turli xil timsollaridan tortib, badiiy ta‘sviriy vositalaridan foydalanib kelgan. Shu o‘rinda adabiyotshunos Begali Qosimov: “...she‘riyatimizda bir tomondan, mumtoz adabiyotimizning eng yaxshi an‘analari yangi davr masalalari bilan bog‘langan holda muvaffaqiyat bilan davom ettirilganligi, ikkinchi yoqdan, G‘arb poeziyasining mukammal namunalaridan samarali foydalanilgani ma‘lum bo‘ldi.”<sup>5</sup> deya fikr bildirgan.

Birgina “Go‘zal” she‘rida mumtoz she‘riyatimizda uchraydigan o‘ndan ortiq badiiy san‘atlar qo‘llanilgan. Manzar Abdulxayrov o‘zining “An‘analarga esh, yangilanishga tashna” nomli maqolasida quyidagilarga to‘xtalib o‘tadi:

“Muhabbat osmonida go‘zal Cho‘lpon edim, do‘stlar,

Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku.

Bir qarashda ushbu misralar ma‘nosi ramziy ifodalar talqinisiz ham tushunarlidek ko‘rinadi: xuddi Cho‘lponning adabiyot olamida tutgan o‘rni haqidagi umumiy sharhlardek. Ammo bu she‘r sinchkovlik bilan sharhlansa, shoirning badiiy kayfiyati yanada aniqlashadi: Cho‘lpon – Tong yulduzi tungi sayrdan so‘ng, ya‘ni quyosh chiqishidan oldin go‘yo ko‘z ilg‘amas darajada yana bir lahza ko‘zga tashlanadi-yu, tezda g‘oyib bo‘ladi.

Ayni shu ma‘noda Alisher Navoiyning «Navodir ush-shabob» asaridagi “Agar ishqing havosida yog‘ar har jola tosh o‘lsun, Nishona har biriga, dermen,

<sup>4</sup> “Adabiyot nadur”. T., “Cho‘lpon”, 1993, 57-58-betlar

<sup>5</sup> .”Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti”. T. ; “Manaviyat” nashriyoti 2004-yil

ushbu xasta bosh o'lsun" matlai bilan boshlanadigan 504-g'azalidan bir baytni g'azalning umumiy mazmuni sharhi bilan birga keltiramiz:

Quyoshni bo'lmas, ey gardun, ul oyg'a aylamak tashbih,

Og'iz gar zarra, Cho'lpon – ko'z, yangi oy anga qosh o'lsun.

Avvalo, ushbu baytdagi eng xarakterli "cho'lpon" so'ziga e'tiborni qarataylik. Bu so'z Alisher Navoiy asarlarida "yorug' tong yulduzi", "go'zal", "chiroyli", "porloq" singari ma'nolarda qo'llanilgan. Umuman, mumtoz adabiyotda "Cho'lpon" – "Zuhra", "Nohid" nomlari bilan ham yuritiladi. U quyosh sistemasidagi katta sayyoralardan biri, Yerga eng yaqin, Quyoshdan hisoblaganda ikkinchi sayyora. Forsiy rivoyatlarga ko'ra esa, Cho'lpon-Nohid afsungar Horut va Morut oshiq bo'lgan ayoldir."<sup>6</sup> Bundan tashqari Cho'lpon o'z hikoyalarida an'analarga ishora qilganligi va ulardan foydalanganligini ham ko'rishimiz mumkin. Ijodkorning nasriy asarlari asosan tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bu esa kitobxonni o'ziga jalb qiladi. Bir qarashda Cho'lpon hikoyalari ijtimoiy ma'no ka'b etsa-da, agar chuqurroq yondashilsa, o'zbek mumtoz hikoyalardan bebahra emasligini ko'ramiz. Mumtoz hikoyalarda maqsad nisbatan aniqroq bo'ladi. Ijodkor nima demoqchiligini ko'pincha hikoya alqissasida bayon qilib o'tadi. Cho'lpon esa hikoyalaridagi mohiyatni o'quvchining o'ziga qo'yadi. Har bir o'qigan kitobxon o'z saviyasidan kelib chiqib asarga baho berishi mumkin bo'ladi. Cho'lpon an'analarga, ya'ni xalqni ilm-ma'rifat bilangina yaxshi kunlarga olib chiqish mumkinligi g'oyalarida asarlar yaratadi. O'tmish ijodkorlari asarlaridan badiiy detal, tasviriy vositalar bilan farq qilsa ham, lekin asardagi maqsad bir hisoblanadi. Masalan, Sa'diyning "Guliston" asarida keltirilgan "Bulbul va qarg'a" hikoyatini olaylik. Unda bulbul va qarg'ani bir qafasga qamaydilar, natijada ikkalasi ham bundan qattiq qayg'uga tushadi. Bundan ko'rinadiki, olim johildan qanchalik nafratlansa, johil ham olimdan shunchalik nafratlanadi. Cho'lpon hikoyalarida ham haqiqiy va soxta olimlar bir-biriga

<sup>6</sup> "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2013 yil 40-soni

qiyoslanadi. Masalan, “Do‘xtur Muhammadiyor” hikoyasida ilmsizlik qoralangan. Bunda Turkiston o‘lkasidagi diniy mutaassiblikka berilgan, o‘zlarini o‘lkaning eng “ilimli odamlari” deb bilgan madrasa ahlini yuzlaridagi “niqob”larini yechib olishni Muhammadiyorga topshiradi. U esa o‘zining Petrogradga o‘qib yurgan vaqtida yozgan “Umrlik shogirdlar” romani orqali tanqidiy fikrlar yog‘diradi. Muhammadiyorning barcha xatti-harakatlarini boshqarib turgan kuch uning vataiga va xalqiga bo‘lgan muhabbatidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, XX asrning 20-30- yillari o‘zbek milliy adabiyotidagi an’anaviylik she’riyat hamda nasriy asarlar negizidagi timsol va ramzlarning yangicha ko‘rinishlari Cho‘lpon asarlarida o‘z aksini topdi. Endilikda esa ana shu asarlarning mohiyatini to‘liq o‘rganish ehtiyoji ortib boryapti.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. [O‘zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Beshinchi jild. “O‘zbekiston nashriyoti”. T. 2020-yil
3. “Adabiyot nadur”. T.,”Cho‘lpon”, 1993, 57-58-betlar
4. ”Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti”. T. ; “Manaviyat” nashriyoti 2004-yil
5. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2013 yil 40-soni
6. Ziyouz.com sayti